

ISSN 2181-922X

O‘ZBEKISTON

TIL VA MADANIYAT

LINGVISTIKA

2022 Vol. 3 (1)

www.navoiy-uni.uz
www.uzlc.navoiy-uni.uz

Bosh muharrir:	Hamidulla Dadaboyev
Bosh muharrir o'rinbosari:	Zulxumor Xolmanova
Mas'ul kotib:	Dilafruz Muhammadiyeva

Tahrir hay'ati

Baxtiyor Abdushukurov, Samixon Ashirboyev, Sulton Normamatov, Munavvara Qurbonova, Muhayyo Hakimova, Dilrabo Baxronova, Mardon Rahmatov, Mo'minjon Turdibekov, Nodira Alavutdinova, To'lqin Tog'ayev, Muqaddas Abdurahmonova, Marhabo Umurzoqova, Shoir Bobomurodova, Gavhar Komilova, Manzura Shamsiyeva, Muhabbat Madaminova, Rohila Abdullayeva, Saodat Israilova, Nodir Jo'raqo'ziyev.

Jurnal haqida ma'lumot

"O'zbekiston: til va madaniyat" jurnali – lingvistika, tarix, adabiyot, tarjimashunoslik, san'at, etnografiya, falsafa, antropologiya va ijtimoiy tadqiqotlarni o'rganish kabi sohalarni qamrab olgan akademik jurnal.

Jurnal bir yilda to'rt marta chop etiladi.

Jurnalning maqsadi – ko'rsatilgan sohalarga oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g'oyalarga boy, o'z konsepsiyasiga ega bo'lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

Ingliz, rus va o'zbek tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi. Iqtisodiy tahlillar hamda siyosatga oid maqolalar e'lon qilinmaydi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e'lon qilinadi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

"Lingvistika" Oliy attestatsiya komissiyasi ilmiy nashrlar ro'y-xatidagi "O'zbekiston: til va madaniyat" jurnalining tilshunoslik yo'nalishidagi seriyasi bo'lib, yilda to'rt marta e'lon qilinadi. "Lingvistika" seriyasida professor-o'qituvchilar, doktorantlar, stajyor-tadqiqotchilar, mustaqil izlanuvchilar, magistrantlarning lingvistika yo'nalishidagi ilmiy maqolalari nashr etiladi.

"Lingvistika" seriyasi 2021-yil mart oyidan chiqa boshlagan.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

O'zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103.

Email: uzlangcult@gmail.com

Website: www.linguistics.tsuull.uz

MUNDARIJA

Lingvistika

Hamidulla Dadaboev

Terms denoting class-estate terminology in Turkic-language
written monuments of the XI-XIV centuries.....4

Зулхумор Холманова

Лингводидактика – инновационное обучение языка.....11

Tolkun Tağayev

XX yüzyılın 20'li yıllarında Özbekistan'da alfabe ve imlâ reformları.....23

Gavharoy Komilova

“Yaxshilik” konseptining aksiolingvistik tahlili.....33

Iqbol O‘razova

XIV asrning II yarmiga oid turkiy yozma manbalardagi
so‘z birikmasi ko‘rinishidagi frazemalar tahlili.....42

Saodat Israilova

Ranglarning etnolingvistik va milliy-madaniy xususiyatlari.....53

Tilshunoslik. Tarjimashunoslik

Sherzod Atamuradov

Qarindosh tillardan tarjimada pragmatik to‘siqning yuzaga
kelishi (Husayn Nihol Otsizning “Ko‘k bo‘rilarning o‘limi”
asari tarjimasi misolida).....65

Tog‘aymurod Bekmurodov

Gazeta va jurnallar onomastikasi.....79

Shaxlo Baxodirova

Abdulla Qodiriy asarlarining lingvistik tahlili xususida.....84

Nodira Alavutdinova

Oliy o‘quv yurtlarida ona tilini o‘qitish metodikasiga oid qarashlar.....94

Shaxribon Musurmankulova

O‘zbek-turk frazemalari parallel korpusining amaliy ahamiyati.....103

Sabohat Qahharova

“Yurish” semali fe‘llar tahlilida semantik to‘r metodidan foydalanish..118

“Yurish” semali fe’llar tahlilida semantik to’r metodidan foydalanish

Sabohat Qahharova¹

Abstrakt

Sun’iy intellekt — informatikaning alohida sohasi bo’lib, odatda inson ongi bilan bog’liq imkoniyatlar: tilni tushunish, o’rgatish, muhokama qilish, masalani yechish, tarjima va shu kabi imkoniyatlarga ega kompyuter tizimlarini yaratish bilan shug’ullanadi [Otaqulov O. va b. 2021, 929]. Sun’iy intellekt - bu informatika, biologiya, psixologiya, tilshunoslik, matematika, mashinasozlik kabi fanlarga asoslangan texnologiya. Sun’iy intellektda semantik yondashuv tabiiy tilni qayta ishlash, uni tushunish, savol-javob jarayonlarida, turli sohalarga yo’naltirilgan faoliyatda qo’llaniladi. Tabiiy tilni qayta ishlash esa bu odamlar gapiradigan tabiiy tilni tushunadigan kompyuter bilan muloqot qilish qobiliyati demakdir. Unda bilimlarni ifodalash uchun turli metodlar qo’llaniladi. Eng ko’p ishlatiladigan metodlardan biri semantik to’r deb ataladigan konstruksiyadir, Fikrimiz isboti sifatida ushbu maqolada semantik to’r (semantic grid-semantik panjara) tizimini shakllantirishda “yurish” semali fe’llar tadqiqot obyekti sifatida tanlandi hamda ayrim fe’llar to’r jadvallari asosida tahlil qilindi.

Kalit so’zlar: *sun’iy intellekt, semantik lug’at, semantik ifodalash metodi, semantik to’r (semantic grid-semantik panjara) metodi, paradigmatic va sintagmatic munosabatlar, antonim, meronim, giponim.*

Kirish

Sun’iy intellekt (AI) atamasi birinchi marta 1955-yilda Jon MsKarti tomonidan qo’llanilgan va u “mashinaning o’zini shunday tutishi, agar odam shunday harakat qilsa, uni aqli deb atash mumkin” deb ta’riflagan [Ahmad. S.F. va b., 2021, 13]. 1950-yilda Alan Turing hisoblash mashinalari qachonlardir odamlar kabi fikrlashi mumkinligini targ’ib qildi [Turing. A.M., 1950. 433-460]. U kelajakda avtomatlashtirilgan mashinalar shunday hisob-kitoblarni amalga oshirishiga ishonganki, odamlar aql bilan qilmaydi. [Ahmad. S.F. va b. 2021, 13]. Hozirga kunga kelib sun’iy intellekt keng ko’lamda ommalashib, kundalik turmush tarzimizning deyarli barcha jabhalarini qamrab olmoqda. Masalan, Xitoydagi Inchuan

¹Sabohat Qahharova Abdug’afurovna– O’zMU tayanch doktoranti.

E-mail: sabohatqahharova922@gmail.com

Iqtibos uchun: Qahharova, S. 2022 “Yurish” semali fe’llar tahlilida semantik to’r metodidan foydalanish. *O’zbekiston: til va madaniyat* 3(1):118-128.

shahri aholisiga bank kartalarining keragi yo’q. Hisob-kitoblar bilan bog’liq barcha jarayonlar sun’iy intellekt tomonidan insonning yuz qiyofasini aniqlashtirish orqali amalga oshiriladi. Tadqiqotchilar sun’iy intellekt 2060-yilga kelib insonning deyarli barcha vazifalarini mustaqil ravishda bajara olishiga umid qilishmoqda. [Otaqulov O. va b. 2021, 930].

Semantika bu tilshunoslikning til birliklari mazmuni va ushbu birliklardan tuzilgan nutqiy hosilalarni o’rganadigan bo’limi sifatida leksemaning ma’no taraqqiyoti, kengayishi, torayishi, ixtisoslashishi, uzual va okkazional ma’no, bosh va hosila ma’no, sinonimiya, antonimiya, polisemiya kabi semantik hodisalar doirasidagi masalalar tadqiqi bilan shug’ullanuvchi lingvistik soha sanaladi [Xolmanova Z. T. 2022, 37-44].

XXI asr o’zbek tilshunosligida leksik birliklarning semantikasini, uning lug’at tarkibini tizimli ravishda ko’rib chiqishga jiddiy e’tiborning kuchayishi, bir tomondan, til leksik fondining ob’yektiv kengayishi bilan bog’liq bo’lsa, ikkinchi tomondan, til hodisalariga sistem-struktur, ya’ni tizim sifatida yondashuvning paydo bo’lishi bilan bog’liq. Tizimli funksional tilshunoslik (SFL) esa til va uning ijtimoiy muhitdagi vazifalari o’rtasidagi munosabatni o’rganadi. Shu nuqtayi nazardan fe’lning semantik strukturasi bilan bog’liq ayrim masalalarni chuqurroq va kengroq maxsus o’rganishda tizimli yondashuv alohida ahamiyatga molikdir. Chunki nutqimizdagi har bir fe’lning semantik strukturasi ishlab chiqmasdan mukammal elektron va tezaurus lug’atlar yaratib bo’lmasligi barchaga ma’lum, shunday ekan, harakat fe’llari semantikasiga tizimli yondashuv nafaqat tezauruslar yaratish, balki o’qitish jarayonida murakkab tushunchalarni o’zlashtirilishini osonlashtirish maqsadida foydalanishga olib keladi. Tizimli munosabatlar esa ushbu tizimning alohida elementlarining o’zaro ta’siri va bog’liqligini aniqlashni o’z ichiga oladi. Ana shunday tilga tizimli yondashuvlardan biri semantik to’r (semantic grid-semantik panjara) metodidir.

Semantik to’r yo’naltirilgan grafik bo’lib, uning cho’qqilari tushunchalarni ifodalaydi, qirralari, ya’ni yoylari esa bu tushunchalar orasidagi semantik munosabatlarni belgilaydi va uni tavsiflash imkonini ham beradi. Semantik to’rlar bilimlarni ifodalash moduli sifatida amerikalik psixolog Quillian tomonidan taklif qilingan. Tilshunos olimi Z. T. Xolamanova semantik to’rning eng keng tarqalgan olti turini sanab, u tabiiy tilda tasvirlanishi mumkin bo’lgan har qanday bilimni tizimli ifodalashni maqsad qiladi [Xolmanova Z. T. 2022, 37-44], deydi.

Metodologiya

Maqolada asosan “yurish” semali fe’llar tahlilida “semantik to’r” metodi, qisman “semantik ifodalash (yoki ta’riflash)” metodlarini ishlab chiqish tufayli uning semantik xususiyatlarini tahlil qilish tizimi aniqlandi. Mavzuga oid muhim tushunchalarni o’zlashtirishlarida, ularning bir-biri bilan qanday bog’liqligini aniqlashda va shu orqali so’z boyligini oshirishda “semantik to’r” dan samarali foydalanishga harakat qilindi.

Adabiyotlar tahlili

Mazkur masalani hal qilishda dastlab keltirilgan lug’atlardan; Xolmanova Z. T., Chih-cheng Lin John F. Sowa Otaqulov O., Pulatova G., Pulatov G’larning maqolalaridan hamda Mamatov A. E.ning o’quv qo’llanmasi tahlil qilindi.

“Yurish” semali fe’llarning semantik jadvali

Ta’lim maskanlarida mashg’ulot jarayonida zamonaviy o’quvchi-talabalarni faollashtirish, olgan bilimlarini xotirada saqlash, rivojlantirish uchun so’z ma’nolari haqidagi bilimlarini takomillashtirishning bir qator samarali usullari: “Semantik jadval”, “Ta’riflash xaritalari (yoki so’z xaritalari)”, “Semantik xaritalash”, “Semantik xususiyatlar xaritasi”, “Semantik to’r”, “Qiyoslash va solishtirish”, “So’z qismlarini o’rgatish” kabilar mavjud. Ayni damda shulardan “Semantik ifodalash (yoki ta’riflash)” hamda “Semantik to’r” yaratish metodlaridan foydalanish haqida mulohaza yuritamiz. Mazkur metodlar talabani mustaqil ilmiy tadqiqot olib borishga o’rgatish uchun ham alohida ahamiyatlidir. Ma’lumki, har bir tilni o’rgatuvchi-o’qituvchilarning pedagogik vazifalaridan biri o’quvchi-talabalarga matn tarkibida berilgan so’zlar ma’nosini atroflicha tahlil qilishga o’rgatishdir. Asosiy jihati shuki, talabalarning kontekstdan so’z ma’nolarini taxmin qilishdagi xatti-harakati ko’proq matn o’qishni mashq qilishga, o’z ustida ishlashiga undaydi [Chih-cheng Lin. 1997, 43-54]. Aynan semantik xususiyatlar tahliliga asoslangan bu ikkala metod so’z ma’nolarini qarama-qarshi qo’yish va solishtirishga; ma’no jihatdan bog’langan so’zlarning guruhlanishiga asoslanadi. Xususan, harakat fe’llarning semantik xususiyatlari o’zbek tilshunosligida o’zida asosan harakat, aniqrog’i, yurish harakati semasini ifoda etuvchi lug’aviy birliklar guruhiga kiruvchi fe’llar lug’atshunoslikda katta qatlamni tashkil etadi. [Qahharova S. A. 2022, 219-223].

Dastlab o’quvchi-talabalarga semantik to’r haqidagi

tasavvurni shakllantirish maqsadida ma’lum bir lug’aviy birlikning semantikasini mustaqil ishlab chiqishni o’rgatishdan boshlash maqsadga muvofiqdir. Bunda ular oldingi bilimlariga asoslangan holda lug’aviy birlikning semantik xususiyat (semantic feature) larni tahlil qilish, so’zlar o’rtasidagi munosabatlarni o’rganishi uchun semantik jadvaldan foydalanishlari mumkin. Bu “Semantik ifodalash (yoki ta’riflash)” metodi bo’lib, u so’zlarni umumiy ma’no ostiga jamlaydi, ularning farq qiluvchi belgilarini ajratib ko’rsatadi, boshqa so’zlar bilan ma’noviy aloqalarini aniqlaydi. Shuning uchun “Semantik ta’riflash” usuli talabalarning mantiqiy fikrlashlarini va nutqiy qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi [Mamatov 2019, 120-121].

Talabalar jadvalni to’ldirish uchun zarur bo’lgan elementlarni topish uchun kontekstga, oldingi bilimlariga va lug’atlarga murojaat qiladilar. O’qituvchi tomonidan mazkur jadvalning chap tomonida “yurish” semali fe’llar guruhi qayd etilgan bo’lib, ularga berilgan ta’riflarni jadvalning o’ng tomoniga yozish kerakligi tushuntiriladi.

1-jadval. Semantik xususiyatlarni tahlil qilish panjarasini yaratish: 1-qadam.

	“Yurish” semali fe’llar guruhi (A group of verbs with the sema «walk»)	Ta’rifi (Definition)
1	yurmoq, sayr qilmoq, sayohat qilmoq, kezmoq, aylanmoq	
2	qadam tashlamoq, odimlamoq, harakatlanmoq	
3	lapanglamoq, yo’rg’alamoq, pildiramoq gandiraklamoq, do’konglamoq, tentiramoq, sudralmoq, emaklamoq	
4	yugurmoq, chopmoq	
5	ketmoq, ergashmoq, tark etmoq, jo’namoq, yo’lga tushmoq, bormoq, boshi og’gan tomonga ketmoq, boshini olib chiqib ketmoq, chiqmoq, olib ketmoq, olib bormoq, olib qochmoq, kuzatib qo’ymoq, hamrohlik qilmoq, kuzatib bormoq, yetaklab ketmoq, o’g’irlab ketmoq, qochmoq, tashlab ketmoq, yo’ldan ketmoq	
6	quvmoq, haydamoq	
7	kirmoq, qaytmoq, olib kelmoq, kelmoq	
8	oqmoq, suzmoq	
9	uchmoq, yelmoq	

10	bosmoq, bosib olmoq, istilo qilmoq, bosib o'tmoq	
11	qatnamoq, o'tmoq, davom etmoq	
12	jilmoq, siljimoq, surilmoq	
13	xiyonat qilmoq	

Ushbu usul ta'lim oluvchilarda turli xil ta'riflar, ma'lum bir guruhga oid fe'llarning har xil semalari paydo bo'ladi va bu orqali ular munozaraga kirishadi. Natijada ta'lim samaradorligining asosiy elementi sifatida muhokamada yaxlit fikr yuzaga chiqadi, ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilar bir-birlari bilan fikr almashishib bir to'xtamga kelishadi. Buni quyidagi jadvalda ko'rish mumkin:

1-jadval. Semantik xususiyatlarni tahlil qilish panjarasining to'ldirilgan shakli: 2-qadam.

"Yurish" semali fe'llar guruhi va ularning ta'rifi		
1	yurmoq, sayr qilmoq, sayohat qilmoq, kezmoq, aylanmoq	shoshmasdan, xayol surib, zavqlanib yurish
2	qadam tashlamoq, odimlamoq, harakatlanmoq	yurishni endi boshlash, o'rganish yoki ma'lum bir kasallik sabab sekin yurish
3	lapanglamoq, yo'rg'alamoq, pildiramoq gandaraklamoq, do'konglamoq, tentiramoq, sudralmoq, emaklamoq	yurish holatlarini turli ko'rinishda ifodalash
4	yugurmoq, chopmoq	tezlikda shoshib yurish
5	ketmoq, ergashmoq, tark etmoq, jo'namoq, yo'lga tushmoq, bormoq, boshi og'gan tomonga ketmoq, boshini olib chiqib ketmoq, chiqmoq, olib ketmoq, olib bormoq, olib qochmoq, kuzatib qo'ymoq, hamrohlik qilmoq, kuzatib bormoq, yetaklab ketmoq, o'g'irlab ketmoq, qochmoq, tashlab ketmoq, yo'ldan ketmoq	ma'lum bir makondan uzoqlashish, uni tark etish
6	quvmoq, haydamoq	subyekt yoki obyektga qaratilgan xatti-harakat
7	kirmoq, qaytmoq, olib kelmoq, kelmoq	subyektning o'ziga yo'nalgan harakat
8	oqmoq, suzmoq	suv yuzasida sodir bo'ladigan harakat
9	uchmoq, yelmoq	fazoda sodir bo'ladigan harakat
10	bosmoq, bosib olmoq, istilo qilmoq, bosib o'tmoq	shiddatli va ayanchli harakat
11	qatnamoq, o'tmoq, davom etmoq	takroriy, doimiy harakat
12	jilmoq, siljimoq, surilmoq	juda sekinlik bilan qisqa davom etadigan harakat
13	xiyonat qilmoq	gunohga botadigan harakat


Yuqorida berilgan jadvalda "yurish» semali fe'llarning

asosiy o’n uchta semantik guruhlar, komponent tahlillari qayd etilgan bo’lib, buni yana davom ettirish mumkin. Bu nimaga kerak degan savol tug’ilishi tabiiy. Bu nafaqat ta’lim samaradorligini takomillashtirishda, balki o’zbek tilining semantik lug’atini ishlab chiqish uchun ham asos bo’ladi. Ma’lumki, 1998-2007-yillar oralig’ida olti jildddan iborat, uch yuz mingga yaqin leksik birliklar va uning ma’nolari sinflari bo’yicha tizimlashtirilgan tushuntirish lug’ati – “Rus tilining semantik lug’ati” yaratilgan [PCJ, 1998-2007; 826, 762, 713, 924, 629]. Shundan to’rtinchi va beshinchi jildlarida sakson mingdan ortiq fe’l ma’nolari izohlangan [PCJ, 2007; 924, 629]. Afsuski, o’zbek tilshunosligida bunday semantik lug’at hali ishlab chiqilmagan.

Semantik to’r-bilimlarni ifodalashning eng maqbul metodi

Ma’lumki, nutqimizda fe’llar alohida-alohida qo’llanilmaydi, ya’ni ko’makchi fe’lli so’z shakllari, turg’un va ajralmas birikmalar bilan ifodalanadi. Ularning hammasi ham bir xil so’zlarni o’ziga tobelantirmaydi. Buning uchun, avvalo, fe’llarning leksik-semantik jihatdan mosligi ko’rib chiqiladi. Masalan, ayrim insonlar nutqida “minmoq” fe’lini “avtobus,” “mashina” shu kabi transport vositalari bilan bog’lab ishlatadi: *mashinaga minmoq, tramvayga minmoq kabi*. «O’zbek tilining izohli lug’ati»[O’TIL, 2007, 597]da esa “minmoq” fe’liga *biror narsaning ustiga (odatda ot-ulovga) oyoqlarini ikki yoqqa solintirib o’tirib olmoq* ta’rifi, ya’ni arxisemasi keltiriladi. Ushbu arxisemaga asosan “minmoq” fe’li quyidagi obyektlar bilan semantik moslikni hosil qiladi:


2-jadval. “Minmoq” fe’lining semantik valentligi



Faqat ayrim shevalardagina mazkur fe’l *transport vositalari (mashina, avtobus, tramvay)ga chiqmoq, o’tirmoq* ma’nolarida qo’llaniladi. Aslida bu kabi transport vositalariga chiqqanda

“oyoqni ikki tomonga solintirib o‘tirish” semasi ifodalanmaydi, bunday obyektlarga nisbatan “chiqmoq” fe‘lini ishlatish maqsadga muvofiqdir. Shu kabi holatlarga e‘tibor bermaslik o‘zbek adabiy tilida esa semantik moslik, ya‘ni muvofiqlikning buzilishiga olib keladi. Shu sabab til o‘qitish mashg‘ulotlarida fe‘llarning boshqa so‘zlar bilan ma‘lum bir doirada bog‘lanish qobiliyati -ularning leksik-semantik mosligi (semantik valentligi)ni ta‘minlash maqsadida turli amaliy metodlardan, xususan, “Semantik to‘r” metodidan foydalanish ayni muddaodir. “Semantik to‘r” semantika masalalariga qaratilgan integratsiya asosidagi tahlil metodlaridan biri hisoblanadi [Xolmanova Z. T. 2022, 37-44] Semantik to‘r til resurslaridan oqilona foydalangan holda tabiiy tilni qayta ishlash, so‘z ma‘nolarining grafik shaklida inventarini yaratish zarurligini ta‘kidlaydi. Bunday grafiklarni qurish va tushunchalarning yaqinlik darajasiga mos ravishda grafik qirralariga ma‘lum ko‘rsatkichlarni belgilash orqali ta‘lim tizimida samarali va sifatli o‘qitishni yo‘lga qo‘yish mumkin. Ko‘p qirrali va ijodiy ta‘lim turlari uchun semantik to‘rning ba‘zi usullarini yaratish zarur, ammo tarmoqni ishlab chiqish variantlari soni shunchalik ko‘pki, bunday imkoniyatlar to‘liq o‘rganilmagan [John F. Sowa. 1992]. Shu boisdan ushbu maqolada “yurish” semali fe‘llar guruhi tarkibiga kiruvchi “sayohatga chiqmoq” hamda uning oppoziti “sayohatdan qaytib kelmoq” fe‘llarining semantik to‘r tizimini yaratish xususida ilk fikrlarimizni berishni joiz deb topdik. Buni quyidagicha shakllantirish mumkin:

3-jadval. “Sayohatga chiqmoq” va “sayohatdan qaytib kelmoq” fe‘llarining semantik to‘r jadvali



Mazkur jadval semantik to‘rning sodd ko‘rinishlaridan biri sanalib, unda “harakat” konsepti o‘z ichiga ikkita sinf elementi, ya‘ni paradigmlar (“sayohatga chiqmoq” hamda u yerdan “qaytib


kelmoq”) ni birlashtirgan umumiy sinf (univesum)ni anglatadi. Ushbu ikkita paradigma bir qancha leksik birliklar bilan semantik munosabatga kirishadi. Natijada paradigmalar o’rtasida qarama-qarshilik (opposition) hamda sintagmatik jihatdan o’xshash (similar) aloqalar yaqqol ko’zga tashlanadi. Buni quyidagi jadvalda ko’rish mumkin:

5- jadval. Semantik jihatdan qarama-qarshi birliklar:

“sayohatga chiqmoq”	⇐ ⇐⇒	“qaytib kelmoq”
dam olish	⇐ ⇐⇒	ishga chiqish
tog‘ga	⇐ ⇐⇒	tog‘dan

Ya’ni **A** o’q tarkibidagi **B** va **C**, **a** va **a₁**, **d** va **d₁**lar o’zaro birbirini inkor etadigan leksik birliklar bo’lib, bu ularning faqlovchi (differensial) tomonlari mavjudligini namoyan qiladi.

4-jadval. “Sayohatga chiqmoq” va “sayohatdan qaytib kelmoq” fe’llarining sintagmatik jihatdan o’xshash (similar) aloqalari



Ko’rinib turganidek “sayohatga chiqmoq” va u yerdan “qaytib kelmoq” lug’aviy birliklar sintagmatik aloqalar nuqtayi nazardan o’xshash, ya’ni faqlovchi (differensial) tomonlari bilan bir qatorda birlashtiruvchi (integral) jihatlariga ham ega. Bundan tashqari keltirilgan jadvallarda A-B va A-C o’qlar o’zaro meronimik munosabatni hosil qilgan.

Aytish mumkinki, til o’qitishda semantik to’rni ishlab chiqish nihoyatda murakkab, bajarilishi kerak bo’lgan katta hajmdagi ishdur.

Buning uchun pedagog tilshunoslik ilmini mukammal bilishi bilan birga matematik amallardan xabardor bo'lishi hamda mantiqiy mushohada qilish qobiliyatiga ega bo'lishi zarur.

Xulosa

Xulosa shuki, semantik to'r bilimlar tuzishda hech qanday cheklovlar qo'ymaydi, balki u bilimlarni turlicha yo'naltirilgan grafik shaklida ifodalaydi. Uning bilimlarni ifodalashning ishlab chiqarish qoidalari, turli xil jadvallari, chizmalari va rasmiy mantiqiy modellar kabi boshqa shakllari ham mavjud. Semantik to'r tizimi nafaqat aniq tizimlashgan tarmoq tuzilmasini, balki undan ancha kattaroq tuzilmani, ya'ni konseptual bilimlar majmuasini ham o'z ichiga oladi [Xolmanova Z. T. 2022].

So'zlar haqidagi tushunchalar "Semantik ifodalash (yoki ta'riflash)" metodida namoyon bo'lsa, semantik to'r esa o'zaro bog'liq so'zlar orasida mavjud bo'lgan alohida munosabatlarni aniqlaydi. Semantik to'r faqat ma'lum bir leksik birlikning ma'no jihatdan bog'liqligini ko'rsatibgina qolmay, balki maqolada keltirilgan jadvallar asosida paradigmatic va syntagmatic, iyerarxik, qolaversa, semantik munosabatlarning ba'zi muhim turlari: sinonimik, antonimik, gipo-giperonimik, meronimik munosabatlar qayd etilgan bo'lib, bu tezaurus lug'atlar yaratishda muhim o'rin tutadi.

Adabiyotlar

- Xolmanova Z. T. 2022. "Semantik maydon va semantik to'r imkoniyatlari". Vol. 1 №01. 37-44.
- "Kompyuter lingvistikasi: muammolar, yechim, istiqbollar". Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. Toshkent.
- Ўзбек тилининг изоҳли луғати. (O'TIL) 2008. 2-jild. Тошкент. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. Давлат илмий нашриёти. 671.
- Mamatov A. E. 2019. Zamonaviy lingvistika: o'quv qo'llanma. 168. 120-121. Toshkent. "Noshir"
- Русский семантический словарь. 1998-2007. В 6 т. Российская академия наук. Ин-т рус. яз. им. В. В. Виноградова. Москва. «Азбуковник». 826, 762, 713, 924, 629
- Русский семантический словарь. (РСЛ) 2007. Т 4. Российская академия наук. Ин-т рус. яз. им. В. В. Виноградова. Москва. «Азбуковник».
- Chih-cheng Lin. 1997. Semantic Network for Vocabulary Teaching. P: 43-54. Vol. 42 (New Version). Journal of Taiwan Normal University. Humanities & Social Science
- John F. Sowa. 1992. Semantic Networks. Encyclopedia of Artificial Intelligence. Wiley. second edition.
- Otaqulov O., Pulatova G., Pulatov G'. 2021. Sun'iy intellekt va uning insoniyat faoliyatida tutgan o'rni. Volume 2 | ISSUE 8. Scientific progress

journal.. Toshkent. 429-435

Ahmad, S.F.; Rahmat, M.K.; Mubarik, M.S.; Alam, M.M.; Hyder, S.I. 2021. Artificial

Intelligence and Its Role in Education. Sustainability 13, 12902. <https://doi.org/10.3390/su132212>

Turing. A.M. 1950. Computing machinery and intelligence. 433–460. Mind.

Qahharova S. A. 2022. “Yurmoq” fe’lining semantik tahlili. №3. 219-223. O‘zMU xabarlari jurnali. Toshkent.

Using the method of semantic grid in the analysis of verbs with the word “walk”

Sabohat Kahharova¹

Abstract

Artificial intelligence is a special branch of informatics, which deals with the creation of computer systems with capabilities usually associated with the human mind: language understanding, teaching, discussion, problem solving, translation, and similar capabilities. [Otakulov O. and an. 2021, 929]. Artificial intelligence is a technology based on sciences such as computer science, biology, psychology, linguistics, mathematics, mechanical engineering. In artificial intelligence, the semantic approach is used in the processing of natural language, its understanding, question-and-answer processes, activities directed at various fields. Natural language processing is the ability to communicate with a computer that understands the natural language spoken by humans. It uses different methods to express knowledge. One of the most used methods is a construction called a semantic grid. As a proof of our opinion, in this article, in the formation of a semantic grid system, verbs with the “walk” pattern were selected as the object of research, and some verbs were analyzed based on grid tables.

Key words: artificial intelligence; semantic dictionary; semantic representation method; semantic network method; paradigmatic and syntagmatic relations; antonym; meronym; hyponym.

References

¹Sabohat Kahharova Abdugafurovna–Basic Doctoral Student, National University of Uzbekistan.

E-mail: sabohatqahharova922@gmail.com

For citation: Kahharova, S. 2022. "Using the method of semantic grid in the analysis of verbs with the word “walk”. *Uzbekistan: Language and Culture* 3(1):118-128.

- Kholmanova Z. T. 2022. "Possibilities of semantic field and semantic network". 37-44.
- "Computational Linguistics: Problems, Solutions, Prospects." International scientific and practical conference. Tashkent.
- An annotated dictionary of the Uzbek language. 2006. Vol. 2. Tashkent. National Encyclopedia of Uzbekistan State Scientific Publishing House. 671
- Mamatov A. E. 2019. Modern linguistics: a study guide. 168. 120-121. Tashkent. "Publisher"
- Russian semantic dictionary. 1998. V 6 t. Russian Academy of Sciences. In-t Russian. summer Im. V. V. Vinogradova. Moscow. "Azbucovník".
- Russian semantic dictionary. 2007. T 4 / Russian Academy of Sciences. In-t Russian. summer Im. V. V. Vinogradova. Moscow. «Azbucovník».
- Chih-cheng Lin. 1997. Semantic Network for Vocabulary Teaching. P: 43-54. Vol. 42 (New Version). Journal of Taiwan Normal University. Humanities & Social Sciences
- John F. Sowa. 1992. Semantic Networks. Encyclopedia of Artificial Intelligence. Wiley. second edition.
- Otakulov O., Pulatova G., Pulatov G'. 2021. Artificial intelligence and its role in human activity. Volume 2 | ISSUE 8. Scientific progress journal. Tashkent. 429-435
- Ahmad, S.F.; Rahmat, M.K.; Mubarik, M.S.; Alam, M.M.; Hyder, S.I. 2021. Artificial Intelligence and Its Role in Education. Sustainability 13, 12902. <https://doi.org/10.3390/su132212>
- Turing. A.M. 1950. Computing machinery and intelligence. 433-460..Mind.
- Kahharova S. A. 2022. Semantic analysis of the verb "walk" 3. 219-223. Acta NUUz. Tashkent.